

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA
SAMARALI YECHIMLAR.**

*Mamadaliyeva Husnida Odiljon qizi
FarDU ta'lim va tarbiya nazaryasi Texnologik ta'lim.
Ilmiy rahbar Salim Otajonov*

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat xavfsizligi muammolari va yechimlarini hal qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlarini ishlab chiqish, sabzavotlar va zirovorlarni ishlatish hamda sifatiga zarar yetkazmasdan saqlash kabi masalalarga qaratilgan. Texnologiya dars mashg'ulotlarida o'quvchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilishni va taom tayyorlashda xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat balansi, oziq-ovqat ta'minoti, oziq-ovqat iste'moli, oziq-ovqat mahsulotlari va qonun-qoidalari, mahsulotlarni sertifikatlash.

Ovqatlanish inson organizmi uchun juda katta ahamiyatga ega. Odam ovqatlanishga muntazam ehtiyoj sezadi. Kam ovqat yeyish ham, ko'p ovqat yeyish ham organizmda turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. To'g'ri ovqatlanish tartibiga rioya qilish esa salomatlik uchun juda muhim.

Inson doimiy harakat natijasida kerakli miqdorda energiya sarflaydi. Sarflangan energiya o'rmini esa oziq-ovqat mahsulotlari egallaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri iste'mol qilish orqali organizm oziqlanadi hamda sog'lom rivojlanadi. Buning uchun tayyorlanayotgan oziq-ovqat maxsulotlar xavfsizligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida odam organizmi uchun foydali vitaminlar hamda mineral moddalar mavjud. Ovqatlanish inson organizmi uchun juda katta ahamiyatga ega. Ovqatlanish-organizm ish faoliyatini ta'minlash, salomatligi va ish qobiliyatini saqlab turish uchun zarur oziq moddalarini o'zlashtirish jarayoni. Kishi rejim bilan to'g'ri ovqatlansa, kasalliklarga kamroq chalinib, ularni oson yengadi. Ovqatlanish jarayonida organizm hayot faoliyati uchun muhim oziq moddalar (oqsil, yog', uglevod, vitaminlar, mineral tuzlar)ni olib turadi. Ularni o'zlashtirish jarayonida organizmning energiyaga bo'lgan ehtiyoji qondirib boriladi. Oziq-ovqat mahsuloti organizmda o'zlashtirilganida ajralib chiqadigan energiya miqdori shu mahsulotning kaloriyasidir. Odam iste'mol qiladigan meva va sabzavotlar tarkibida oziq-ovqat nitratlari va radiaktiv moddalar mavjud.

Birmaromda bir xil ovqatlanish organizm uchun zarardir. Kunlik ovqatlanish ratsionini turli foydali vitaminlar bilan boyitib borish hamda bir kunda besh marta: ertalabki nonushta, ikkinchi nonushta, tushlik, tushdan keyingi yengil ovqatlanish,

kechki taom bilan belgilash tavsiya etiladi.Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga sut va mahsulotlari, go'sht mahsulotlari, don mahsulotlari, sabzavot va mevalar, yog'lar va tuxum makaron, qand va shirinliklar kiradi. Yurtimizda Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi qonunning barcha moddalarida oziq-ovqat texnologiyasi qoidalari to'la tasvirlab berilgan. Masalan,O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 18-apreldagi 429-sonli qonunining 1-moddasida ushbu qonunlar aholini sifatlari va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashning huquqiy asoslarinibelgilab beradi.

oziq-ovqatlar—oziq-ovqat xomashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holida iste'mol qilinadigan mahsulotlar;

oziq-ovqat mahsuloti — oziq-ovqat xomashyosi, (shu jumladan etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga;

oziq-ovqat mahsuloti muomalasi—oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'liq faoliyat;

oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilish—oziq-ovqat mahsulotini ma'lum shartlar bilan sotish, yetkazib berish va topshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 24-maydag'i 771-sonli qonunining 4-moddasida: Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi to'g'risidagi qonunlar xalqimizning manfaati yo'lida xizmat qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi 683-sonli qonuning 7-moddasida: Oziq-ovqat mahsulotini, uni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va u bilan savdo qilishga mo'ljallangan texnologiyalar, uskunalar, buyumlar va vositalarni sertifikatlash. Oziq-ovqat mahsulotini sotib olish va sotish,ishlab chiqarish jarayonida asbob-uskunalar, buyumlar, vositalarni normalar va qoidalarga mosligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlanishi lozim.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda oziq -ovqat texnologiyasi eng asosiy va dolzarb muammo, masalalardan biridir. Davlatimizda 10 mingga yaqin oziq - ovqat sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 16 % dan ortig'ini tashkil etadi. Xavfsiz oziq -ovqat deganda biz odatda , yuqori sifatlari ekologik toza genetic modifikatsiyalashgan organizmsiz (GMO), oziq - ovqatga aloqadorzarlarli elementlar bo'limgan mahsulotlarni nazarda tutamiz. Oziq - ovqat xavfsizligi insonlarning istalgan vaqtida faol va sog'lom turmush tarzi uchun zarur elementlarga boy va xavfsiz ovqatlanish imkoniyatiga ega bo'lish demakdir. Shu boisdan, qayd qilish lozimki, ayni globallashuv jarayonida davlatlarda aholini oziq - ovqat bilan ta'minlash muhim masalaga aylandi. Oziq - ovqat inson hayotidagi eng muhim oziqlardan biridir. Oziq - ovqat xavfsizligi insoniyatning eng

asosiy muammolasidan biri bo'lib, millatlarning salomatligini, rivojlanish va farovonligini belgilaydi. BMT mutaxassislari ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha ishlar olib borishni ta'kidlayapti. Bugungi kunda tabiatga antropogen ta 'sir kuchayib borishi, isrofarchilik, ilg'or rivojlanayotgan davlatlar davlatlar o'rtasidagi oziq-balansi bo'yicha farq o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti. BMT ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzi aholisining 815 mln nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050- yilga borib, bu ko'rsatkich 2 mlrd kishiga yetdi. Ularning 12,5% rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida o'limning 45% aynan ochlikdan kelib chiqayotir. Oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlanishga yo'naltirish mamlakatimiz uchun dolzarb va ustuvor vazifadir.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining tez rivojlanib ketmasligiga asosiy sabab aylanma mablag' yetishmasligi, xomashyo tanqisligi, ular faoliyatini to'xtab qolishi kabilar. Mamlakatimizda oziq – ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ular tomonida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi kundan kunga ortib bormoqda. 2011- yildan 2020-yilga qadar davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 barobarga ortgan. Bu esa mamlakatdagi korxonalar rivojlanayotganligidan darakdir. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini rivojlantirishning asosiy belgilar: tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat sanoatini ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomllashtirish, kichik sanoat korxonalariga yangi va zamonaviy investitsiya kiritish, davlat ko'magini berish, qo'shimcha imtiyozlar yaratish. Bunday islohotlardan so'ng davlatimiz iqtisodiyoti yanada takomillashib, kuchli davlatlar qatoridan o'rinn egallaydi. Bu O'zbekiston uchun eng katta muvaffaqiyat, yuksak cho'qqilardan biri sanaladi.

Xulosa: Oziq- ovqat texnologiyasining muammolariga yechimlar: oziq-ovqat sanoatining innovatsion faoliyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan taklif etilgan metodologik yondashuvlar, tushunchalar, ishlanmalar, takliflarni o'rganish va hamkorlik aloqasini o'rnatish, monografik turli mamlakatlarda innovatsion faoliyatni boshqarish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish va amalda sinash. Oziq-ovqat ishlab chiqarishda iste'molchilar xavfsizligini ta'minlash mahalliy-oziq-ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni diversifikasiya qilish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish asosida bu texnologiyani rivojlanishining strategiyasini va modellarini jahon bozorlarida ilgari surish, eksport salohiyatini kengaaytirish, import hajmini esa kamaytirish, istiqbolli loyihalarning infratuzilmasini ta'minlash, xorijiy ekspertlarni jalb etish, davlat standartlari me'yorlarini xalqaro standart me'yorlariga bosqichma – bosqich moslashtirish va shunga o'xshagan, shu uslubdagi bir qancha islohot va takliflar. Davlatimiz taraqqiyoti

va yuksalishida har bir shaxs mas'uliyat bilan harakat qilmog'i lozim. Ayniqsa, biz kelajak poydevorlari, yoshlari berilayotgan imkoniyatlardan to'laqonli va unumli foydalangan holatda, O'zbekiston nomini har sohada dunyoga tanitish, jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarish asosiy burch va vazifalarizmizdan biridir.ilm cho'qqisini zabit etishga otlangan har bir yosh avlod o'z maqsadlari ila shahdam, dadil qadam tashlab ,yuksak marralarni egallashi lozim. Chunki, har bir davlatga ideal ong va tafakkurga ega mahoratli, teran fikrli tashabbuskor kadrlar juda muhim. shunday ekan, qiyinchilik, mashaqqatlarga ko'z yumgan holda muvaffqaiyatlar sari olg'a borish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Samiyev. F "Oziq-ovqat xavfsizligi,sifati". 2012-yil
2. F.F.Abdullayev "Komyoviy texnologiya va oziq-ovqat sanoati" 2016-yil
3. I.Ermakova.I.V "Modifikatsion organizm 2010-yil
4. Vasiyev M,Vasiyeva G "non, makaron, va qandolat mahsulotlari" 2002-yil